


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**TABIIY VA IQTISODIY FANLAR BLOK MODULI
BO‘YICHA UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
O‘QUV DASTURI
(VIII SINF)**

GEOGRAFIYA



Toshkent-2018

TUSHUNTIRISH XATI

Hozirgi ishlab chiqarish, texnika va tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik, geosiyosiy sharoit tadrijiy ravishda o'zgarib borayotgan vaqtda maktablarda geografiya fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitish zamon talabidir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fanlarni o'qitish jarayonida fan-texnika taraqqiyoti, muhandislik, matematika va kundalik hayot bilan bog'lab o'rganish (STEAM yondashuvi) ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning dolzarb masalasidir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda geografiya (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) fanidan ta'lim berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish va tabiatdan foydalanish sohalari, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Geografiya (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) ta'limida o'rganiladigan tabiiy, ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o'quvchilarga tushunarli holda umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e'tiborni o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o'quvchilarning bilim olish o'quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga e'tibor qaratishdan iborat.

Geografiya (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) fanini o'qitishning asosiy maqsadi: o'quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, jahon va O'zbekistonning tabiiy sharoiti, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish, global va regional muammolar haqida tushunchalarni shakllantirish, tahliliy fikrlashga o'rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Geografiya (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

Yer sayyorasi, O'zbekiston Respublikasi tabiati, aholisi hamda iqtisodiyoti haqidagi tizimli va majmual bilimlarni tarkib toptirish;

joy nomlari va geografik atamalarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;

hozirgi zamon jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining mohiyati va xususiyatlari to'g'risida tasavvur hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan tejamkorlik munosabatini o'stirish;

turli axborot manbalaridan foydalangan holda, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt hodisalarini tavsiflash, geografik xaritalar, statistik ma'lumotlar bilan ishlashning amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish;

geografik bilimlar asosida o'quvchilarning iqtisodiy va siyosiy fikrlash doirasini kengaytirish;

o'quvchilarni Vatanga mahabbat, milliy iftixor, fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash.

STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim - tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan. Tabiiyot va geografiya o'quv fanlarini o'rganishning birinchi davri 1- va 2-sinflarda Yer, Quyosh, ob-havo, fasllar, Yer yuzasining tuzilishi, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardagi kishilar hayoti, mehnati haqida, 3-4 sinflarda tabiat hodisalari, mamlakatimiz tabiati haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi. Fanni o'rganishning ikkinchi davrda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-10-sinflari bo'lib, o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilgan matematika, fizika, botanika, kimyo, texnologiya fanlaridan olingan bilimlar umumlashtirilib, Yer sayyorasi, har bir materik, qit'a, okean, O'zbekiston Respublikasi, mamlakatimizga tarixiy-geografik, iqtisodiy jihatdan yaqin davlatlar va dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarining tabiati, aholisi, iqtisodiyoti, geosiyosiy holat va geoeologik sharoiti to'g'risida ma'lumotlar beriladi hamda amaliyotda qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Dasturning yana bir jihati shundan iboratki, bunda o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga e'tibor qaratilgan.

O'qituvchi darsini tashkil etishda o'qitish usulining turli (ma'ruza, og'zaki bayon qilish, amaliy topshiriq o'quv atlas va xarita bilan ishlash va boshqa) shakllaridan foydalanish mumkin. Darsni tashkil etishda dars berishning turli noan'anaviy usullaridan (bahs-munozara, bayon, boshqotirmalar) hamda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, ularni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan, muammoli ta'lim, loyihalash, interfaol, hamkorlikda ishlash, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda o'qituvchi tomonidan dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi dars samaradorligining oshishiga va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

STEAM bilim, ko'nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatish orqali sinfdagi dars mashg'ulotlari va maktabdan tashqari kundalik faoliyatida o'quvchilarning amaliy o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, ko'rish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bunda o'quvchi yoshlarning qiziqishlarini ertaroq aniqlash va iqtidorini, ijodkorligini rivojlantirishga yo'naltirish, yangiliklarni hayotga tatbiq etish

orqali ilmiy izlanuvchanligi hamda yaratuvchanligini rivojlantirish uchun o'quv dasturining boshida har bir sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Mazkur talablarning o'quvchilar tomonidan bajarilishini ta'minlash o'qituvchining asosiy vazifasidir. Bu o'z o'rnida o'quv yili boshlanishida pedagoglarning harakat strategiyasini belgilab beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur o'quv dasturida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan **amaliy mashg'ulotlar**, o'quvchilarni mustaqil bajarishga va ijodiy fikrlashga undovchi **amaliy topshiriqlar** berilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulot strukturasi mashg'ulotni bajarish tartibi va uni o'tkazish uchun zarur o'quv jihozlari nomlari keltiriladi. O'quvchi berilgan topshiriq asosida tabiiy hodisalarni, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni kuzatadi, aniqlaydi, tahlil qiladi va xulosa yozadi. Amaliy mashg'ulot darsi uchun alohida soat ajratiladi.

Amaliy topshiriq strukturasi o'z ichiga matn, xarita, rasm, grafik, diagramma yoki jadval orqali ifodalanadi. O'quvchi berilgan topshiriqlarni xarita, matn, rasm, diagramma, grafik, jadvaldan foydalanib bajaradilar. Amaliy topshiriqlar o'tilgan mavzular kesimida yoki fanlar aloqadorligini qamrab oluvchi topshiriqlar bo'lishi mumkin.

Ushbu o'quv dasturida boblar kesimida mavzularga ajratilgan umumiy soatlar hajmi keltirilgan bo'lib, ularning taqsimlanishi o'qituvchi tomonidan ijodiy yondoshgan holda amalga oshiriladi. Jumladan, taqvim mavzuiy rejani tuzishda o'quv dasturida boblarga ajratilgan umumiy soat hajmidan chiqmagan holda taqsimlanishi zarur.

Shuningdek, o'quvchilarning Davlat ta'lim standartini o'zlashtirish yuzasidan o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida mavzularga ajratilgan soat hajmini 15% gacha o'zgartirish va metodik kengash yig'ilishida kelishilgan holda maktab pedagogika kengashida muhokama qilinib, tasdiqlanishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur dasturda tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxatidan fan o'qituvchilari ijodiy yondoshgan holda mavzularni kengaytirib o'qitishda foydalanishlari mumkin.

Mazkur o'quv dasturi 2019/2020 o'quv yilida VIII sinfda amaliyotga joriy etiladi.

(O'ZBEKISTON IQTISODIY VA IJTIMOY GEOGRAFIYASI)

(68 soat)

O'quvchilarning o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

O'zbekiston tabiiy va siyosiy xaritalaridan yirik geografik obyektlarning joylashgan o'rinini aniqlaydi va ko'rsata oladi;

O'zbekistondagi asosiy geografik obyektlar (viloyat, shahar, yirik suv havzalari, relyef shakllari)ning nomlarini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri qo'llay oladi;

O'zbekiston ma'muriy-hududiy tuzilishini, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarining salohiyatini, aholisining soni, o'sishi, tarkibi va joylashuvining asosiy xususiyatlarini biladi;

ishlab chiqarish omillarining mohiyati va ahamiyatini, ulardan ratsional foydalanishning lozimligini tushunadi;

respublikamizning milliy iqtisodiyoti tarmoqlarini ajrata oladi, ularning rivojlanishi, joylanishi va ixtisoslashuvining muhim xususiyatlari, ularga ta'sir etuvchi omillarni biladi;

sanoat, qishloq xo'jalik va transportning tabiiy muhitga ta'sirini tahlil qiladi, korxonalarni joylashtirishda ekologik omillarga e'tibor qaratish lozimligini asoslaydi;

mamlakatimiz iqtisodiy rayonlari va viloyatlarining iqtisodiy geografik xususiyatlarini biladi, ularni o'zaro taqqoslaydi;

turli iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda diagrammalar, jadvallar, chizmalar, iqtisodiy xaritalar kabi iqtisodiy tahlil vositalaridan ma'lumot manbai sifatida foydalanadi;

aholi tabiiy va migratsion harakati, aholi zichligi, harakati va tarkibi, mehnat unumdorligi, hududlarning shaharlashuvi darajasi, ixtisoslashuv ko'effitsientini topishga oid masalalarni yechadi.

O'quvchilarga qo'uvfaoliyatini bajarishga qo'yiladigan talablar:

(chuqurlashtirilgan sinflar uchun)

Mamlakatimizda barpo etilgan qo'shma korxonalar va ularda tayyorlanayotgan mahsulotlar haqida ma'lumotlar to'play oladi;

iqtisodiy hodisa va jarayonlarni shaxs va jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan tahlil qila oladi;

ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar yordamida hududlarni tavsiflay oladi;

asosiy milliy va xalqaro darajadagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda diagrammalar, jadvallar, chizmalar, iqtisodiy xaritalar kabi iqtisodiy tahlil vositalaridan o'rinli foydalana oladi;

milliy iqtisodiyotda amalga oshirayotgan islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar, mintaqaviy siyosatning hududlarga ta'sirini tushunadi.

IBOB. O'ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O'RNI VA MA'MURIY-HUDUDIIY TUZILISHI

(4 soat)

Kirish.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tarkibiy qismlari, tarmoqlari, beriladigan bilimlar tizimi. Tabiiy geografiya bilan bog'liqligi.

O'zbekistonning geografik o'rni.

Geografik (tabiiy geografik, iqtisodiy-geografik, siyosiy-geografik) o'rin haqida tushuncha. O'zbekiston Respublikasining maydoni, chegaralari, chekka nuqtalari, iqtisodiy-geografik va siyosiy-geografik o'rni. Jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, xalqaro tashkilotlariga a'zoligi.

O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi.

Ma'muriy-hududiy tuzilish tushunchasi. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishining pog'onasimonligi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri. Qishloq tumanlari. Shaharlar va ularning ma'muriy maqomi.

Ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar.

Siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar, ularning turlari va shartli belgilari. Ulardan foydalanish.

IIBOB. O'ZBEKISTONNING TABIIY BOYLIKLARI, AHOLISI VA MEHNAT RESURLARI

(6 soat)

O'zbekistonning tabiiy sharoit va tabiiy boyliklari.

Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar ta'rifi, ularning aholi turmushi va xo'jalikka ta'siri. Tabiiy resurslarning turlari: mineral, suv, Yer, biologik va iqlimiy resurslari. Tugaydigan, tugamaydigan, tiklanadigan, tiklanmaydigan, ko'p maqsadli, sanoatda va qishloq xo'jaligida ishlatiladigan resurslar.

O'zbekiston tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati.

O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslarini xo'jalik jihatdan baholash (balandlik mintaqalari bo'yicha). Tabiiy resurlardan oqilona foydalanish va ekologik muammolar.

O'zbekiston aholisi.

O'zbekiston aholisi, tabiiy va mexanik harakati. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari, tabiiy ko'payish. Tashqi va ichki migratsiya. Aholi zichligi va joylanish xususiyatlari.

O'zbekiston aholisining tarkibi.

Mamlakat aholisining jinsiy, yosh bo'yicha tarkibi. Mehnat resurslari. Iqtisodiy faol va nafaol aholi. Aholining iqtisodiy tarmoqlariga kesimida bandligi. Aholining milliy va diniy tarkibi.

Aholipunktlari.

Aholi punktlari. Shahar va qishloq aholi punktlarining xususiyatlari. Shahar va shaharchaning ta'riflari. Shahar punktlarining aholi soni bo'yicha tasniflanishi. Urbanizatsiya jarayoni haqida tushuncha.

III BOB. MILLIY IQTISODIYOTNING TARKIBIY TUZILISHI

(32 soat)

O'zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi.

Milliy iqtisodiyot tushunchasi. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari haqida tushuncha. O'zbekiston milliy iqtisodiyotining tarmoq tuzilishi. Davlat statistika hisobi haqida tushuncha.

Sanoat – milliy iqtisodiyotning tayanch tarmog'i.

Sanoatning tarmoq tarkibi, korxonalarini joylashtirish omillari. Sanoat ishlab chiqarishning mujassamlashuvi, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatlashuv.

Yoqilg'i-energetika majmuasi.

YoEM tushunchasi, yoqilg'i-energetika balansi, shartli yoqilg'i, mahsulot tannarxi. YoEM tarkibiy qismlari.

Neft va gaz sanoati.

O'zbekistonda neft va gazning qazib olinishi miqdori va dinamikasi. Neft va gaz sanoatining asosiy korxonalari, ular joylashgan manzilgoh va hududlar. Neft va gazdan foydalanish.

Ko'mir sanoati.

Toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir. O'zbekistondagi ko'mir konlar. Ko'mirdan foydalanish.

Elektroenergetika.

Elektroenergetika sanoati: issiqlik elektr stansiyalari va markazlari; gidroelektrostansiyalar; atom elektrostansiyalar, noan'anaviy energiya manbalari: shamol, va quyosh elektr stansiyalari. O'zbekiston elektroenergetikasining tarkibi.

Kimyo sanoati.

Kimyo sanoati haqida tushuncha. Asosiy tarmoqlari: tog'-kimyo sanoati, asosiy kimyo (mineral o'g'itlar, soda, sulfat kislotani ishlab chiqarish), organik sintez kimyosi, maishiy kimyo. O'zbekistonda kimyo sanoatining asosiy tarmoq va yirik korxonalari, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, asosiy markazlari.

Qora metallurgiya.

Metallurgiya tushunchasi, uning tarmoqlari. Qora metallurgiya sanoati va uning asosiy mahsulotlari. Qora metallurgiya korxonalarining joylanishidagi omillar (xomashyo va yoqilg'i bazasi). Texnologik bosqichlari (rudani qazib olish, cho'yan, po'lat eritish, prokat va turli qotishmalar ishlab chiqarish). O'zbekiston metallurgiya zavodi (Bekobod) va uning joylashish omillari.

Rangli metallurgiya.

Rangli metallurgiya, uning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, rangli metallar guruhlar. Tarkibiy qismlari: rudani qazib olish, boyitish, eritish va qotishmalar ishlab chiqarish. Korxonalarning elektroenergiya va xomashyo manbalariga yaqin joylashtirilishi.

Mashinasozlik va uning tarmoqlari.

Mashinasozlik mohiyati, vazifasi, tarmoqlar tarkibi. Joylanish omillari: malakali kadrlar, xomashyo, transport va iste'mol omillari. Mashinasozlikning ilmiy bilan chambarchas bog'liqligi. Mamlakatimizda mashinasozlikning rivojlanishi, undagi tarkibiy o'zgarishlar. Mashinasozlik sanoatidagi qo'shma korxonalar.

Avtomobilsozlik.

O'zbekiston avtomobilsozligi. Avtomobilsozlikning asosiy markazlari. Asaka, Samarqand va Xorazm avtomobil zavodlari. Avtomobilsozlikda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish. Avtomobilsozlikning istiqbollari.

Yog'ochni qayta ishlash sanoati.

Yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati haqida umumiy tushuncha. Joylanishidagi asosiy omillar. O'zbekistonda ushbu sanoat tarmog'ining shakllanishi va asosiy markazlari.

Qurilish materiallari sanoati.

Asosiy mahsulotlarivaularningxomashyosi. O'zbekiston qurilish sanoatining yirik korxonalari va ularning joylanishi. Mustaqillik yillarida qurilish sanoatining rivojlanishi.

Sanoat va ekologik muammolar.

Sanoat tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgan ekologik muammolar. Sanoat korxonalarni joylashtirishda ekologik omillarni hisobga olish.

Agrosanoat majmuasi.

Agrosanoat majmuasi, uning tarkibiy tuzilishi, undagi iqtisodiy islohotlar.

Qishloq xo'jaligi.

Qishloq xo'jaligi. Qishloq xo'jaligining yer-suv fondi va undan foydalanish. Meliorasiya haqida tushuncha. Qishloq xo'jaligining tarkibiy qismlari, ixtisoslashuvini tabiiy sharoitga bog'liqligi. Ekstensiv va intensiv qishloq xo'jalik.

Dehqonchilik.

Dehqonchilik tarmoqlari. Sug'orma va lalmikor dehqonchilik. Paxtachilik. Donchilik. Bog'dorchilik va uzumchilik. Kartoshkachilik, sabzavotchilik va polizchilik. Yalpi hosil, ekin maydon va hosildorlik tushunchalari.

Chorvachilik.

Chorvachilik tarkibi va geografiyasi. Vodiy-vohalarda, lalmikor yerlarda, cho‘l va tog‘ yaylovlarida chorvachilikning rivojlanishi, ixtisoslashuvi, dehqonchilik bilan aloqadorligi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining geografik tiplari.

Qishloq xo‘jaligining geografik tiplari – vodiy-voha, shahar atrofi, lalmikor, cho‘l-yaylov, tog‘.

Yengil sanoat.

Yengil sanoat, uning 2 ta tarmoqlar guruhiga bo‘linishi (qishloq xo‘jalik xom ashyosini birlamchi qayta ishlash tarmoqlari va tayyor mahsulot ishlab chiqarish tarmoqlari), joylanish omillari. O‘zbekistondagi yengil sanoatning asosiy tarmoqlari va korxonalari.

Oziq-ovqat sanoati.

Oziq-ovqat sanoati va uning joylanishidagi asosiy omillar. Oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining 2 ta guruhga bo‘linishi: ko‘p xomashyo talab qiluvchi tarmoqlar hamda saqlash muddati qisqa bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar. O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatining asosiy tarmoq va mahsulotlari. Mustaqillik yillarida rivojlanib ketgan tarmoqlari.

Sanoatni hududiy tashkil etish hamda joylashtirish shakllari.

Sanoat punkti, sanoat tuguni, sanoat markazi va sanoat rayoni tushunchalari. O‘zbekistonda barpo etilgan erkin industrial-iqtisodiy zonalar, ularning ahamiyati.

Transport.

Transport, uning turlari. Yuk va yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlari. Yo‘llar uzunligi va zichligi ko‘rsatkichlari, ularning geografik sharoit bilan bog‘liqligi. Magistral, polimagistral, transport tuguni tushunchalari.

O‘zbekiston transportining zamonaviy rivojlanishi.

O‘zbekiston transport tizimi, uning tarmoqva hududiy jihatlari. O‘zbekistonning mustaqillik davridagi dunyo okeaniga chiqish imkoniyatlarini oshirish va mamlakat transport tizimining bir butunligini ta‘minlash borasidagi xatti-harakatlari. Mustaqillik yillarida qurilgan yangi yo‘llar. Tezyurar temir yo‘l tarmoqlarining rivojlanishi.

Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari.

Xizmat ko‘rsatish sohasining tarkibiy qismlari. Vazifalari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari joylanishining aholi soni va tarkibi, aholi manzilgohlarining yirikligi, talabning davriyligi hamda yo‘llar bilan chambarchas bog‘liqligi.

O‘zbekistonda rekreatsiya va turizm.

Rekreatsiya va turizm tushunchalari. Rekreatsiya va turizm resurslari. O‘zbekistondagi dam olish maskanlari. O‘zbekistondagi qadimiy shaharlar va tarixiy obidalar turizm resursi sifatida.

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar va ularning turlari: xalqaro savdo, qo‘shma korxonalar, xalqaro turizm, moliya-kredit munosabatlari. Tashqi savdo. Tashqi savdo aylanmasi va balansi. O‘zbekiston eksport va importning tovar tarkibi, uning dinamikasi. Asosiy tashqi savdo hamkorlari.

Amaliy mashg‘ulot

Iqtisodiy geografik mazmundagi masalalarni yechish (aholi zichligi, tabiiy va mexanik harakati, urbanizatsiya darajasi, mehnat unumdorligi, tashqi savdo aylanmasi va balansi).

IV BOB. O‘ZBEKISTONNING REGIONAL TAVSIFI

(26 soat)

O‘zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish.

Hududiy ixtisoslashuv va uning ko‘effisienti. Ixtisoslashuv gata’siretuvchi omillar. Iqtisodiy rayonlashtirish, uning mezonlari. O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlarga ajratilishi. Iqtisodiy rayonlar xo‘jaligining majmua tarzida rivojlanishi. Hududiy ishlab chiqarish majmualari.

Toshkent iqtisodiy rayoni.

Rayonning iqtisodiy geografik o‘rni va hududiy tarkibiy qismlari. Tabiiy sharoiti va resurslari. Toshkent iqtisodiy rayonining O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida tutgan o‘rni. Aholisining milliy tarkibi va malakali kadrlar tayyorlashdagi salmog‘i. Ixtisoslashgan tarmoqlari.

Toshkent viloyati.

Ixtisoslashgan tarmoqlari va sanoat shaharlari, ulardagi yirik korxonalar. Yoqilg‘i-energetika bazasi. Qishloq xo‘jaligi. Rekreatsiya xo‘jaligi.

Toshkent shahri.

Toshkent shahrining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati. Sanoat salohiyati. Yirik ishlab chiqarish korxonalari. Ijtimoiy sohalari va turizm. Diqqatga sazovor obyektlari.

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni.

Rayonning iqtisodiy geografik o‘rni. Ma’muriy tarkibi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Yangi o‘zlashtirilgan yerlar va ularning xususiyatlari. Aholisi. Ixtisoslashgan tarmoqlari.

Sirdaryo viloyati.

Hududi, chegaralari, ma’muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o‘rni qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o‘ziga xosligi. Xo‘jalik ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo‘jaligi tarkibi va geografiyasi. Viloyat shaharlari.

Jizzax viloyati.

Hududi, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o'rning qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Mirzacho'l, Turkiston-Nurota tog'lari va Qizilqum qismlari. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o'ziga xosligi. Xo'jalik ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi tarkibi va geografiyasi. Viloyat shaharlari.

Farg'ona iqtisodiy rayoni.

Tarkibi, geografik o'rni, maydoni, chegaralari, O'zbekiston maydoni va aholisidagi hissasi. Iqtisodiy-geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi, uning joylanishi va tarkibi xususiyatlari. Xo'jaligi. Sanoati va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. Transporti. Tog'lararo botiqligining aholi va xo'jaligidagi hududiy tafovutlarga ta'siri.

Andijon viloyati.

Hududi, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o'rni qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o'ziga xosligi. Xo'jalik ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi tarkibi va geografiyasi. Viloyat shaharlari.

Farg'ona viloyati.

Hududi, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o'rni qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o'ziga xosligi. Xo'jalik ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi tarkibi va geografiyasi. Viloyat shaharlari. Diqqatga sazovor obyektlari.

Namangan viloyati.

Hududi, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o'rni qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o'ziga xosligi. Xo'jalik ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi tarkibi va geografiyasi. Viloyat shaharlari.

Zarafshon iqtisodiy rayoni.

Tarkibi, geografik o'rni, maydoni, chegaralari, O'zbekiston maydoni va aholisidagi hissasi. Iqtisodiy-geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Suv resurslari. Zarafshon daryosi – rayonning geografik o'qi. Aholisi, uning joylanishi va tarkibi xususiyatlari. Xo'jaligi. Sanoati va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. Transporti. Turizm.

Samarqand viloyati.

Hududi, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o'rni qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o'ziga xosligi. Xo'jalik ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi tarkibi va geografiyasi. Viloyat shaharlari. Turistik obyektlari va turizmning iqtisodiy ahamiyati.

Navoiy viloyati.

Hududi, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o'rni qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Qizilqum, Zarafshon vodiysi va Nurota tog'li vodiysiga bo'linishi. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o'ziga xosligi. Xo'jalik ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi tarkibi va geografiyasi. Viloyat shaharlari.

Buxoro viloyati.

Hududi, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o'rni qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Viloyat hududi voha va cho'l-yaylov qismlardan iboratligi. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o'ziga xosligi. Xo'jalik ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi tarkibi va geografiyasi. Viloyat shaharlari. Turistik obyektlari va turizmning iqtisodiy ahamiyati.

Janubiy iqtisodiy rayon.

Tarkibi, geografik o'rni, maydoni, chegaralari, O'zbekiston maydoni va aholisidagi hissasi. Iqtisodiy-geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi, uning joylanishi va tarkibi xususiyatlari. Xo'jaligi. Sanoati va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. Transporti.

Qashqadaryo viloyati.

Hududi, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o'rni qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o'ziga xosligi. Xo'jalik ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi tarkibi va geografiyasi. Viloyat shaharlari. Turistik obyektlar va diqqatga sazovor joylari.

Surxondaryo viloyati.

Hududi, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o'rni qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o'ziga xosligi. Xo'jalik ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi tarkibi va geografiyasi. Viloyat shaharlari. Turistik obyektlar va diqqatga sazovor joylari.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni.

Tarkibi, geografik o'rni, maydoni, chegaralari, O'zbekiston maydoni va aholisidagi hissasi. Iqtisodiy-geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi, uning joylanishi va tarkibi xususiyatlari. Xo'jaligi. Sanoati va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. Transporti. Orol bo'yidagi ekologik muammolar, ularning transchegaraviy xususiyatlari.

Xorazm viloyati.

Hududi, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o'rni qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Voha va Tuproqqal'a massivi. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o'ziga xosligi. Xo'jalik

ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi tarkibi va geografiyasi. Viloyat shaharlari. Turistik obyektlari va turizmning iqtisodiy ahamiyati.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Hududi, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi. Iqtisodiy-geografik o'rni qulayligi. Tabiiy resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Aholisi, uning joylanishi va tarkibining o'ziga xosligi. Xo'jalik ixtisoslashuvi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi tarkibi va geografiyasi. Ekologik muammolari. Shaharlari, ulardagi madaniy va turistik obyektlar.

Amaliy mashg'ulot.

O'zbekiston iqtisodiy rayonlari va viloyatlariga qiyosiy-geografik tavsif berish.

Umumlashtiruvchi dars.

Geografiya(O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi)fanini mavzuiy rejalashtirish

№	Bo'limvaboblarnomi	Jami soatlartaqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1	1-BOB. O'zbekistonning geografik o'rni va ma'muriy-hududiy tuzilishi	4	4	-
2	2-BOB. O'zbekistonning tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari	6	5	2
3	3-BOB. Milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari	32	27	5
4	4-BOB. O'zbekistonning regional tavsifi	26	21	4
	Jami	68	57	11

Geografiya fanini chuqurlashtirib o'qitishni mavzuiy rejalashtirish

№	Bo'limvaboblarnomi	Jami soatlartaqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1	1-BOB. O'zbekistonning geografik o'rni va ma'muriy-hududiy tuzilishi	6	6	-
2	2-BOB. O'zbekistonning tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari	9	7	2
3	3-BOB. Milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari	48	41	7
4	4-BOB. O'zbekistonning regional tavsifi	39	32	7
	Jami	102	86	16